



## ANDIZ ( INULA ) TURKIMIDAGI QORA ANDIZ ( INULA HELENIUM ) VA SARIQ ANDIZ ( INULA GRANDIS) TUR O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI VA AHAMYATI.

**Abdullayev Salmonbek Murodali o`g`li**

*Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi*

**Kamolova Marjona Rustam qizi**


*Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi*

**Anotatsiya:** Andiz (*Inula*) qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub ko'p yillik osimlik turkimi. Bu turkimning 100 ga yaqin turlari mavjud. O'zbekistonda esa Andiz turkimining 9 ta turi bor. U tog'larning quyi va o'rta mintaqalarda mayda zarrali yumshoq qiyaliklarda o'sadi. U asosan Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona , va Surxondaryo viloyatlari hududida uchraydi. Xom ashyoni yig'ishda ildiz tizmida 20 sm radyusda 30 sm chuqurlikda qaziladi va poyani ushlab ildizpoyalari bilan birga ildizlari tortib olinadi, bunda qalin ildizlari sinib ketmasligi harakat qlinadi. Ilmiy tibbiyotda oshqazon va o'n ikki barmoqli ichak yaralari va oshqazon katari uchun qorqa andiz ildizidan preparatlar tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Andiz (*Inula*), Qora andiz ( *Inula helenium* ), sariq andiz (*Inula grandis*), Efir moyi, levulyoza ( furuktoza ), allaton ( tabletka holida ), Toshkent , Samarqand, Andijon, Farg'ona , va Surxondaryo, Taqayong'oq va Jourjurek, Kumushkonsoy, Zarkentsoy, igalan , igalin, seskviterpenovin diollari- igalon, flavonoidlar, saponinlar, organic kislatalar.

Andiz (*Inula*) qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub ko'p yillik osimlik turkimi. Bu turkimning 100 ga yaqin turlari mavjud. O'zbekistonda esa Andiz turkimining 9 ta turi bor. Bo'ydon bo'lib o'sadiganlari esa qora andiz (*Inula helenium* ) va sariq andiz ( *Inula grandis* ) turlari ko'proq tarqalgan.

Bu turlarning poyalari baland bo'yli (1-2,5 m), bir oz qirrali , tukdor; ildizpoyasi ( tanasi) yog'on , barglari butun, cheti notekis, poyaning quyi qismida yirik (uzunligi 40-50 sm, eni esa 20-25 sm ), yuqorisida esa maydaroq (uzunligi 10-30 sm eni esa 3-12 sm); guli avatcha , gulbandi yog'on, chetdagi gullari urug'chili o'rtadagilari esa ikki jinski, sariq. Iyunning oxiridan sentabrgacha gullaydi. Adir va tog'larda dengiz sathidan 500- 2000 m gacha bo'lgan balandliklarda o'sadi. Qora andiz ( *Inula helenium* ) ildizpoyasi tarkibida 3 foizgacha efir moyi, 44 foizgacha inulin, saponin va boshqa moddalar bor. Ildizpoyasidan tayyorlangan damlama balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlataladi. Sariq andiz (*Inula grandis* ) ham tabobatda siyidik haydovchi dori sifatida ishlataladi. Sariq andiz ildizpoyasidan esa levulyoza ( furuktoza ) olinadi. Andizning ba'zi turlari xushmanzarali hisoblanadi. (O'zME birinchi jild,Toshkent 2000-yil ).





Andiz turlarining preparati balg'am ko'chiruvchi dori sifatida hamda me'da va ichak kasaliklarida ishlatiladi. Efir moyi antiseptik, gjija haydash xususiyatiga va yalig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Uning gjija haydash xususiyati tarkibida santoninga o'xhash tasir etuvchi moddalar- alantolaktonlar borligiga bog'liq. Qora andizning ildizpoya va ildizidan allaton dorivor preperati olinadi. Alloton mahsulotning seskviterpenlarining yig'indisi bo'lib, yalig'lanishga qarshi, qon tomirlarni mustahkamlovchi va antiseptik ta'sirga ega hamda, me'da, yurak kasaligida yaraning bitishini tezlashtiradi. Dorivor preperati: qaynatma, allaton (tabletka holida ). Ildiz va ildizpoyasi yo'talga qarshi hamda balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladigan yig'ma choylarni uchratish mumkin bo'ladi.

### **O'sish joyi . Tarqalishi.**

U tog'larning quyi va o'rta mintaqalarda mayda zarrali yumshoq qiyaliklarda o'sadi. U asosan Toshkent , Samarcand, Andijon, Farg'ona , va Surxondaryo viloyatlari hududida uchraydi. Pskem daryosi havzasida ( Toshkent viloyati) hududida qorq andiz (Inula helenium ) keng tarqalib, ba'zan juda zikh o'sish maydonlarini tashkil etadi. Dengiz sathidan 800-2000 m balandlikdagi hududlarda uchratish mumkin. Fitosenotik optimumi 1200-1800 m balandlikda joylashgan, o'sish guruhlari turon quruq dasht joylari, keng bargli o'rmonlar, archa o'rmonlar va baland tog' yirik o'tli o'simliklar qoplamida keng tarqalgan. Xom ashyni yig'ishni Pskem daryosining o'ng qirg'og'iga Taqayong'oq va Jourjurek, shuningdek, Kumushkonsoy, Zarkentsoy qishloqlari orasida o'tkazish mumkin.

### **Xom ashyni yig'ishva uning sifati.**

Xom ashyni yig'ishda ildiz tizmida 20 sm radyusda 30 sm chuqurlikda qaziladi va poyani ushlab ildizpoyalari bilan birga ildizlari tortib olinadi, bunda qalin ildizlari sinib ketmasligi harakat qlinadi. Zikh o'sgan maydonlarni tiklash uchun 10 metr kvadrat uchun kamida bitta mevali o'simlik qoldiriladi. Qazib olingan xom ashyo tuproqda tozalaniladi, tezda suvda yuviladi, asosidan poya qoldiqlarini tozalab kesib tashlab, yupqa ildizlari ham olib tashlanadi. Ildizpoyalari va qalin ildizlar uzunligi bo'ylab 10-15 sm va 1-2 sm qalinlikdagi bo'laklarga kesiladi. Qora andizning ildizlari va ildizpoyalari ochiq havoda 2-3 kun soyada va nam havoda ayvon ostida quritiladi.

### **Kimyoviy tarkibi.**

Qorq andizdan, igalan , igalin, va seskviterpenovin diollari- igalon va grandon ajratilgan. Bundan tashqari , ildizlarda flavonoidlar, saponinlar va organic kislatalar mavjud.

### **Tibbiyotda qo'llanilishi.**

Ilmiy tibbiyotda oshqazon va o'n ikki barmoqli ichak yaralari va oshqazon katari uchun qorqa andiz ildizidan preparatlar tavsiya etiladi. Ananaviy tibbiyot amalyotida ildizlaridan olingan damlama sil, oshqazon – ichak kasalliklarida va gjija haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Andiz (Inula ) qoqio'tdoshlar (Asteraceae ) oilasiga mansub ko'b yillik osimlik turkimi. Bu turkimning 100 ga yaqin turlari





mavjud. O'zbekistonda esa Andiz turkimining 9 ta turi bor. Bo'ydon bo'lib o'sadiganlari esa qora andiz (Inula helenium) va sariq andiz (Inula grandis) turlari ko'proq tarqalgan. Dengiz sathidan 800-2000 m balandlikdagi hududlarda uchratish mumkin. Fitosenotik optimumi 1200-1800 m balandlikda joylashgan, o'sish guruhlari turon quruq dasht joylari, keng bargli o'rmonlar, archa o'rmonlar va baland tog' yirik o'tli o'simliklar qoplamida keng tarqalgan. Xom ashyni yig'ishda ildiz tizmida 20 sm radyusda 30 sm chuqurlikda qaziladi va poyani ushlab ildizpoyalari bilan birga ildizlari tortib olinadi. Ilmiy tibbiyotda oshqazon va o'n ikki barmoqli ichak yaralari va oshqazon katari uchun qorqa andiz ildizidan preparatlardan tavsija etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zME birinchi jild, Toshkent 2000-yil .
2. Alimbaeva P.K. Goncharova. A.V. Qirg'izistonning dorivor o'simliklari 1971-yil, 98-bet.
3. Dorivor o'simliklarning hududlar va resuruslar atlasi M:GUGK, 1983-y, 340-bet.
4. Nasov A.M. Dorivor o'simliklar .M:EKSmo-Press, 2000-y, 350-b.
5. O'simlik preperatlari Abu Ali ibn Sino (Avitsena) 11- qo'llanma, tahrirlangan , Sh.B. Irgasheva, Toshkent -2003, 457-b.
6. Botanika – farmakognostik lug'ati, Ed. Bilinova K.F.M : Oliy maktab 1990-y, 272-b.
7. [www.ipni.com](http://www.ipni.com)( International plants Name Index).
8. [www.powo.com](http://www.powo.com)( Plants of the World Online)

